

SHUKUR XOLMIRZAYEV
BODOM QISHDA GULLADI
(HIKOYA)

Men burchakda, karavotimda chalqancha yotardim, behol. Ko'kragimda Stendalning «Qizil va qora» romani. Eshikdan oq xalatli, semiz Polina, uning ketidan pakana, qora patli xalatining etagi yerga tegib turgan bir yigitcha kirdi. Uning iyagi oldinga turtib chiqqan, ko'zi chuqur, peshanasi botiq edi.

- Sizlarga yangi mehmon olib keldim, — dedi Polina hammamizga tegishli qilib. So'ng men tomonda yotgan jo'raboshimiz Ziganshinga qaradi: — Qabul qiling, o'rtoq starosta. Bu kishining ismi... — U yigitchadan so'radi: — Ismingiz nimaydi?
- Nosir, Nosirjon! — dedi mehmon hozirjavoblik bilan.
- Ana, Nosirjon ekan, — dedi Polina. — Palataning tartib-qoidasini o'rgating. — So'ng elektr choynak qoshida turgan kursini unga ko'rsatdi: — O'tiring, Nosirjon. Men hozir kelaman.

Nosirjon onasi ish buyurgan yosh boladek kursiga o'tirib, kalta qo'llarini tizzasiga qo'ydi. So'ng birdan irg'ib turib, dam u, dam bu tomonga qarab:

- Assalomalaykum, assalomalaykum! — dedi.
- Vaalaykum, — dedi Ziganshin. — Endi tanishib olamiz-da. Qani, o'zlari nima ish qiladilar?
- Kurer, — dedi Nosirjon o'rnidan turib.
- O'tiring... Kurer? Qaerda?
- Aptobus parkida.
- A, nima bo'lib... siz ham jigar kasalmi?
- Jigar! — Nosirjon o'ng biqiniga kaftini bosib qo'ydi. — Hech munaqa kasalim yo'q edi. Ertalab parkka kelsam, bitta tanish shopir: «Ko'zing sarg'ayipti,, medpunktga kir», deb qoldi. Medpunktga kirsam, jigar kasali, deb aytishdi. Keyin «skoriy pomosh»ga o'tqazib, buyoqqa yuborishdi. Pastda tekshirishdi. Cho'miltirib, mana bularni kiydirishdi. Keyin bu yerga... o'zingiz nima ish qilasiz, aka?

Ziganshin g'urur bilan kuldi:

- Karavotsozlik fabrikasida injenerman!

Nosirjon juda ulug' odamga duch kelganday o'rnidan turib ketayozdi. So'ng boshqa bemorlarga ham hurmat va sezilarli qo'rquv bilan bir-bir qaradi.